



UO'K: 811.81.49.11

## LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK NUQTAYI NAZARIDAN NOSTALGIK LEKSIK BIRLIKLARNING TAHLILI

АНАЛИЗ НОСТАЛЬГИЧЕСКИХ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ  
СЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЙ ТОЧКИ ЗРЕНИЯANALYSIS OF NOSTALGIC LEXICAL UNITS FROM A LINGUOCULTURAL  
PERSPECTIVEXayitova Rushana Ximoyiddin qizi 

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada nostalgik leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Nostalgianing lingvistik ifodalanishi milliy xotira, madaniy meros va shaxsiy tajribalar bilan bog'liq bo'lib, turli tillarda o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida o'zbek va ingliz tillarida nostalgiya bilan bog'liq leksik birliklarning semantik va pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning milliy identifikatsiya va madaniy kodlashuvdagi roli ochib beriladi. O'zbek tilida nostalgik birliklar asosan jamoaviy xotira va madaniy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lsa, ingliz tilida ular individual tajribalar va shaxsiy kechinmalarga asoslangan. Maqolada lingvomadaniyatshunoslik, semantik tahlil va qiyosiy tilshunoslik usullari asosida nostalgika fenomenining til tizimidagi namoyon bo'lishi tadqiq etilgan.

**Аннотация**

В данной статье рассматриваются лингвокультурные особенности ностальгических лексических единиц. Лингвистическая репрезентация ностальгии связана с национальной памятью, культурным наследием и личным опытом, проявляясь по-разному в разных языках. В ходе исследования осуществлен сравнительный анализ семантических и прагматических характеристик ностальгических лексических единиц в узбекском и английском языках, а также раскрыта их роль в национальной идентификации и культурном кодировании. В узбекском языке ностальгическая лексика преимущественно связана с коллективной памятью и культурными ценностями, тогда как в английском языке она основана на индивидуальном опыте и личных переживаниях. В статье применены методы лингвокультурологического, семантического и сравнительно-типологического анализа для изучения проявления феномена ностальгии в языковой системе.

**Abstract**

This article examines the linguocultural characteristics of nostalgic lexical units. The linguistic representation of nostalgia is associated with national memory, cultural heritage, and personal experiences, manifesting differently across languages. The study conducts a comparative analysis of the semantic and pragmatic features of nostalgic lexical units in Uzbek and English, highlighting their role in national identity and cultural encoding. In Uzbek, nostalgic lexicon is predominantly linked to collective memory and cultural values, whereas in English, it is primarily based on individual experiences and personal emotions. The article employs methods of linguocultural analysis, semantic analysis, and comparative linguistics to explore the manifestation of the nostalgia phenomenon within the language system.

**Kalit so'zlar:** nostalgiya, nostalgik leksik birliklar, lingvomadaniyatshunoslik, semantik tahlil, madaniy kodlashuv, milliy xotira, individualizm, jamoaviy xotira, leksik birliklar, qiyosiy tahlil.

**Ключевые слова:** ностальгия, ностальгические лексические единицы, лингвокультурология, семантический анализ, культурное кодирование, национальная память, индивидуализм, коллективная память, лексическая система, сравнительный анализ.

**Key words:** nostalgia, nostalgic lexical units, linguocultural studies, semantic analysis, cultural encoding, national memory, individualism, collective memory, lexical system, comparative analysis.

**KIRISH**

Til inson tafakkuri va madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, nafaqat aloqa vositasi, balki milliy ong, tarixiy xotira va madaniy kod sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, nostalgik leksik birliklarning lingvomadaniy tadqiqi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

## TILSHUNOSLIK

Nostalgik leksik birliklar inson ongida o'tmishga oid hissiyotlar, qadriyatlar va xotiralar bilan bog'liq bo'lib, ular milliy va universal madaniy xotira tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Qadimgi faylasuflardan biri aytganidek, nostalgiya insonga orzu qilingan tajriba va yoqimli xotiralarni hadya etadi, ular o'tmishdan keladi va hozirgi haqiqat hamda bugungi kun ularni taqdim eta olmaydi. Shuning uchun "nostalgiya" atamasining "o'tmishga, o'tmishda bo'lgan narsalarga intilish, sog'inchi" ma'nosida qo'llanilishi tadqiqotchining fikriga ko'ra, "tilning hozirgi vaqtda boshidan kechirayotgan qonuniy jarayonlaridan biri" [8; 66-b.] hisoblanadi.

"Nostalgiya" so'zi lotincha *nostalgia* – nostalgiya (dastlab tibbiy atama) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, yunoncha *nostos* – "uyga qaytish" va *algos* – "azob, og'riq" so'zlarining birikmasidan hosil bo'lgan. Bu terminni shveysariyalik olim I. Xofer 1688-yilda ilmiy muomalaga kiritgan. Ingliz tilida: *nostalgia*, *homesickness*, frantsuz tilida: *nostalgie* [11; 381-b.].

A.D. Mixelsonning kitobida "**nostalgiya**" tushunchasi quyidagicha izohlangan: yunoncha *nosteo* – "qaytish" va *algos* – "og'riq, azob" so'zlaridan olingan bo'lib, u "**vatan sog'inchi**" ma'nosini anglatadi va kasallikka o'xshash ruhiy holat sifatida talqin etiladi [4; 368-b.].

F.F. Pavlenkovning lug'atida shunday yozilgan: "**Nostalgiya – vatan sog'inchi bo'lib, u ruhiy kasallik shaklida namoyon bo'lishi mumkin**" [6; 228-b.].

D.N. Ushakov quyidagicha ta'rif beradi: "**Nostalgiya va nostalgik (yunoncha *nostos* – qaytish va *algos* – azob so'zlaridan kelib chiqqan) – vatan sog'inchi**" (kitobiy atama) [7; 674-b.].

N.G. Komlevning xorijiy so'zlar lug'atida quyidagicha ma'lumot keltirilgan: "*Nostos* – uyga qaytish, *algos* – azob, og'riq. Ya'ni, **vatan sog'inchi, o'tgan hayotga yoki boshdan kechirilgan voqealarga sog'inchi**" [3; 417-b.].

Lug'at maqolalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, "nostalgiya" so'zi "vatan sog'inchi" ma'nosidan tashqari quyidagi ma'nolarda ham ishlatila boshlagan: 1) yo'qotilgan yoki o'tib ketgan o'tmishga sog'inchi; 2) o'tmishda bo'lgan narsaga sog'inchi. Bu holatni rus tili milliy korpusidan olingan misollar bilan tasdiqlaymiz [5]:

Mazkur maqolada nostalgik leksik birliklarning lingvomadaniy ahamiyati, ularning turli tillardagi aks etish xususiyatlari hamda milliy madaniyat bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – nostalgik leksik birliklarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash hamda ularning jamiyatdagi o'rni va funksional yuklamasini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy, semantik tahlil hamda kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi. Maqola yozish davomida turli tilshunoslik manbalari, leksikografik materiallar hamda badiiy asar namunalaridan olingan nostalgik leksik birliklar asos sifatida tahlil qilindi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Nostalgik leksik birliklarni lingvistik nuqtayi nazaridan o'rganish zamonaviy tilshunoslikda doimo dolzarb sanalgan. Jumladan, P. N. Johnson-Laird & K.Oatley [14], B.B. Stern [16], L. Hutcheon [13], S.Boym [10], E.A. Golovanenko va O.N. Skvarcha [1], Angé Olivia va David Berliner [9], D.I. Djafarova [2] kabilarning ilmiy tadqiqoti dalil bo'la oladi. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar asosan semantika, madaniyat va tarixiy tilshunoslik kesishgan nuqtalarda shakllangan. Nostalgiyaning lingvistik jihatlarini o'rganish bo'yicha turli olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday birliklar milliy xotira, madaniy meros hamda psixologik holat bilan bog'liq bo'lib, ular jamiyatda avlodlar o'rtasidagi ma'naviy ko'priklar vazifasini bajaradi [10; 6-b.].

Tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikda nostalgik leksika asosan quyidagi nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilingan:

1) semantik-nostalgik yondashuv – so'zlarning semantik jihatdan nostalgik ma'nolar bilan bog'liqligini ochib beradi. Ushbu yondashuvda Fillmor va Lyons tomonidan taklif qilingan ramkalar nazariyasi muhim rol o'ynaydi.

2) kognitiv yondashuv – nostalgik tushunchalarning inson ongida qay tarzda aks etishini va madaniy xotira bilan bog'liqligini o'rganadi. Lakoff va Jonson (1980) metaforik xaritalash nazariyasi orqali nostalgiya bilan bog'liq ma'no shakllanishini tushuntirishgan.

3) sotsiolingvistik yondashuv – nostalgik leksikaning ijtimoiy guruhlar tomonidan qanday qabul qilinishini va uning kommunikativ funksiyalarini o'rganadi. Bu borada Labov va Fishman tomonidan olib borilgan sotsiolingvistik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

4) tarixiy-etimologik tahlil – nostalgik soʻzlarning kelib chiqishi va ularning tarixiy rivojlanish yoʻnalishlarini oʻrganishga qaratilgan. Ushbu yondashuvda Ullmann va Buck asarlari muhim manba hisoblanadi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Nostalgik leksik birliklarning lingvomadaniy tahlili ularning madaniy kodlashuvi, tarixiy maʼnosi va kommunikativ vazifalarini ochib berdi. Ushbu birliklar xalqning oʻz oʻtmishiga munosabatini, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini ifodalashda muhim rol oʻynaydi.

Nostalgik leksik birliklar milliy identifikatsiyaning ajralmas qismi boʻlib, ular madaniy merosni asrash va avlodan-avlodga etkazishda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, oʻzbek tilida “hovli”, “dasturxon”, “mahalla”, “choyxona”, “chechakdan qolgan izlar”, “qozon osh”, “qoʻnoq” kabi soʻzlar nafaqat turmush tarzini ifodalaydi, balki xalqning oʻziga xos anʼanalari va jamoaviy qadriyatlarini ham aks ettiradi. Ingliz tilida esa “past”, “regret”, “childhood home”, “old town”, “grandma’s kitchen”, “high school days”, “summer camp”, “family dinners” va “lost melodies” kabi nostalgiya bilan bogʻliq birliklar asosan shaxsiy xotiralar va individuallik bilan bogʻliq boʻlib, madaniy kodlashuvning boshqa bir shaklini ifodalaydi.

Quyida Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” [15] romanidan asar qahramoni uchun nostalgiya boʻlgan misollardan birini tahlil qilamiz:

*“Kezi kelganda maxdumning yozlik kiyimlarini ham bir sidra aytib ketaylik: yoʻlluq, qizil qalami boʻzdan yaxtak, oq boʻzdan jihak yoqaliq keng koʻylak (chunki tor boʻlsa yirtiladir) va lozim (yaʼni ishton) hamda sarpoychan kiyishka engilcha sagʻri kafsh, ammo salla qishin, yozin bitta.”*

Bu parcha oʻtmishni eslab, kiyim-kechak va eski turmush tarzining tafsilotlarini tasvirlaydi. Asar qahramoni uchun bu eski kiyimlar va odatlar yoshlikning, oʻtgan davrning ramzi sifatida nostalgiya uygʻotadi. Shu tariqa, oʻtgan hayotga xos odatlar va buyumlar inson xotirasida jonlanib, ularning ruhiy olamiga taʼsir qiladi.

Quyida esa, Agatha Christiening “And Then There Were None” [12] asaridan nostalgiya bilan bogʻliq misolini keltiramiz:

*“There had been a time when he had sat in the evenings, sipping his drink, listening to the gramophone. That had been a grand time – the best time in his life. Damn shame it was over... He sighed. These days there wasn’t much left to look forward to.”*

Bu parcha qahramonning oʻtgan baxtli kunlarini eslab, hozirgi hayotiga nisbatan oʻzida nostaljiya va afsus tuygʻusini his qilayotganini aks ettiradi.

Quyidagi jadvalda esa, ushbu Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” va Agatha Christiening “And Then There Were None” romanlarida ishlatilgan nostalgik leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan:

Aspektlar	Mehrobdan chayon	And Then There Were None
Leksik birliklarning kelib chiqishi	Oʻzbek xalqining tarixiy va madaniy merosi bilan bogʻliq	Gʻarb madaniyatidagi shaxsiy tajribalar va individuallik bilan bogʻliq
Semantik xususiyatlar	Oila, jamiyat va anʼanalar bilan bogʻliq leksik birliklar ( <i>hovli, atlas, mahalla, dasturxon</i> )	Shaxsiy kechinmalar va oʻtgan voqealarni eslatadigan birliklar ( <i>past, guilt, regret</i> )
Funksional yuki	Oʻtgan davrga boʻlgan ijobiy nostalgiya, madaniy merosni eslash	Oʻtgan xatolar va yoʻqotishlarga asoslangan subyektiv nostalgiya
Kommunikativ ahamiyat	Jamoaviy qadriyatlarni mustahkamlash, tarixiy tajribalarni esga olish	Ichki monolog va shaxsiy kechinmalar orqali individual tajribani aks ettirish

Koʻrinib turibdiki, oʻzbek madaniyatida nostalgik leksik birliklar jamoaviy xotiralar, madaniy meros va oilaviy qadriyatlar bilan uzviy bogʻliq. Bunga “mahalla”, “hovli”, “dasturxon”, “atlas”, “doʻppi”, “tandir”, “sumalak”, “lazgi”, “chechakdan qolgan izlar”, “sanda”, “qozon osh”, “qoʻnoq”, “yaylov”, “soʻzana”, “anorzor” va “bobojon hovlis” kabi leksik birliklar misol boʻla oladi. Ushbu

## TILSHUNOSLIK

birliklar nostalgiya tuyg'usini uyg'otishda jamoatchilik hissi, urf-odatlar va oilaviy qadriyatlarning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Boshqa tomondan, g'arb madaniyatida nostalgiya ko'proq individual xotiralar, pushaymonlik va ichki kechinmalar bilan bog'liq. Diagrammada ko'rsatilganidek, *“regret”, “past”, “childhood home”, “old diary”, “first love”, “lost friendship”, “yearbook”, “high school days”, “summer camp”, “grandmother’s house”, “family dinners”, “vinyl records”, “vintage letters”, “forgotten melodies”, “old neighborhood”* va *“classic cartoons”* kabi birliklar individualizm va shaxsiy xotiralarga asoslangan nostalgiya hissini ifodalaydi. Bu esa g'arb madaniyatining shaxsiy kechinmalarga urg'u berishini aks ettiradi.

Shuningdek, diagrammadan o'zbek madaniyatidagi nostalgik birliklarning ijtimoiy va jamoaviy qadriyatlarni mustahkamlovchi xususiyatga ega ekanligi, g'arb madaniyatida esa ular shaxsiy refleksiya va o'tgan hayotdagi xatolarni eslatuvchi semantik yuklama kasb etishi aniq ko'rinadi.

Umuman olganda, nostalgik leksik birliklar har bir madaniyatda turlicha namoyon bo'lib, ularning semantik va pragmatik xususiyatlari shu madaniyatga xos qadriyatlar va ijtimoiy tuzum bilan chambarchas bog'liq.

**XULOSA.**

Demak, nostalgik leksik birliklar milliy madaniyat, tarixiy meros va shaxsiy identifikatsiyaning muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, ularning lingvomadaniy tadqiqi tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nostalgik birliklarning semantik va funksional xususiyatlari turli madaniy kontekstlarda o'ziga xos namoyon bo'ladi.

O'zbek tilidagi nostalgik leksik birliklar jamiyat va jamoaviy xotiralar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular madaniy kod sifatida milliy merosni avloddan-avlodga etkazish, ijtimoiy qadriyatlarni mustahkamlash va an'analarni saqlash vazifasini bajaradi. *“Hovli”, “mahalla”, “dasturxon”, “choyxona”, “atlas”* kabi birliklar shaxsiy kechinmalardan ko'ra ko'proq jamoaviy xotira va ijtimoiy an'analarga asoslangan nostalgiyani ifodalaydi.

G'arb madaniyatida esa nostalgik birliklar individualizm va shaxsiy tajribalar bilan bog'liq bo'lib, ular ko'proq shaxsiy xotiralar, pushaymonlik va o'tgan hayotga bo'lgan ichki refleksiya bilan tavsiflanadi. *“Regret”, “past”, “childhood home”, “old diary”, “first love”, “high school days”* kabi birliklar insonning shaxsiy o'tmishiga nisbatan o'z ichki kechinmalarini aks ettirishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, nostalgiya konseptining lingvomadaniy tahlili shuni ko'rsatadiki, har bir til va madaniyatda bu tushuncha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning namoyon bo'lish shakllari milliy tafakkur va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liq holda shakllanadi. Kelgusida nostalgik leksik birliklarning tarjima muammolari, diskursiv xususiyatlari hamda boshqa tillardagi ekvivalent variantlari bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Голованенко Е.А., Скварча О.Н. Расширение семантического объема слова «ностальгия» в русском языке и включение его в новый круг семантической ассоциации // Вісник СумДУ. Філологічні трактати. 2011. Т. 3. № 2. – 352 с.
2. Djafarova D. I. Fransuz va o'zbek tillarida tarixiy xotirani ifodalovchi frazeologik birliklarining liisoniy xususiyatlari: filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Toshkent- 2022. – 72 b.
3. Комлев Н.Г. Словарь иностранных слов / Н.Г. Комлев. – Москва: Эксмо-Пресс, 2000. – 672 с.
4. Михельсон А.Д. Объяснение 25000 иностранных слов, вошедших в употребление в русский язык, с означением их корней / А.Д. Михельсон. – Москва. – 368 с.
5. Павленков Ф.Ф. Словарь иностранных слов, вошедших в состав русского языка / Ф.Ф. Павленков. – Санкт Петербург, 1907. – 359 с.
6. Ушаков Д.Н. Большой толковый словарь русского языка / Д.Н. Ушаков. – Москва. 2005. – 1239 с.
7. Шварцкопф Б. С. Ностальгия / Б.С. Шварцкопф // Русская речь. – 1967. – № 1. – С. 65 – 66.
8. Angé Olivia, and David Berliner. Anthropology and Nostalgia. – New York: Berghahn Books, 2015. – 167 p.
9. Boym, Svetlana. The Future of Nostalgia. – New York: Basic Books, 2001. – 204 p.
10. Carolyn Kiser Anspach. Medical Dissertation on Nostalgia by Johannes Hofer, 1688. Bulletin of the Institute of the Study of Medicine 2, no. 6. 1934. – 381 p.
11. Christie Agatha. And Then There Were None. – London: HarperCollins, 2015. – 419 p.
12. Hutcheon Linda. Irony, Nostalgia, and the Postmodern. Methods for the Study of Literature as Cultural Memory. Ed. Raymond Vervliet and Annemarie Estor. Atlanta: Rodopi, 2000. – P. 189–207.
13. Johnson-Laird P. N., Oatley K. The language of emotions: An analysis of semantic field. Cognition and Emotion, 1989. – P. 81–123.
14. Qodiriy Abdulla. Mehrobdan chayon: Roman – Toshkent: “Sharq”, 2007. – 256 b.

15. Stern B.B. Historical and personal nostalgia in advertising text: The fin de siècle effect. *Journal of Advertising*, 1992). 11-22.